

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

IQTISODIYOT FANLARI

ASALARICHILIK FAOLIYATINING UY XO'JALIKLARI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH VA OSHIRISHDAGI ROLINI STATISTIK TAHLIL QILISH**Xudayarova Zuxra Yuldashevna**

TISU "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası o'qituvchisi

Email: zuxra_xudayarova@tues.uz

Tel: +998 932038433

Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezida Surxondaryo viloyatida asalarichilik faoliyatining uy xo'jaliklari daromadlarini shakllantirish va oshirishdagi o'rni statistik jihatdan tahlil qilingan. Asalari oilalari sonining dinamikasi va xo'jaliklar kesimidagi taqsimlanishi baholangan.

Kalit so'zlar: asalarichilik, uy xo'jaliklari daromadi, statistik tahlil, asalari oilalari, bandlik, iqtisodiy samaradorlik, klasterlash, Surxondaryo viloyati.

STATISTICAL ANALYSIS OF THE ROLE OF BEEKEEPING ACTIVITIES IN GENERATING AND INCREASING HOUSEHOLD INCOMES**Khudayarova Zukhra Yuldashevna**

Lecturer, Department of Accounting and Statistics

Termiz University of Economics and Service (TUES)

Annotation. This article statistically analyzes the role of beekeeping in generating and increasing household incomes in the Surkhandarya region. The dynamics of bee colony numbers and their distribution across farm categories are evaluated.

Keywords: beekeeping, household income, statistical analysis, bee colonies, employment, economic efficiency, clustering, Surkhandarya region.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n10>

Asalarichilik sohasi iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi asosiy masalalardan biri bu – samarali zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'z vaqtida ilmiy asoslangan ravishda amalga oshirish hisoblanadi[1]. Buning uchun avvalo asal yetishtirish texnologiyasini yetarli darajada o'zlashtirishni taqozo etadi. Asalarichilik xo'jaliklarida texnologiyalardan foydalanishni amalga oshirish bu mahsulot yetishtirishdagi birlamchi amalga oshiradigan vazifalaridan hisoblanadi[2]. Shu bois asalarichilikda klasterlashdan foydalanishni amalga oshirish yo'llari umumiy samaradorlikka ta'sir etuvchi yetakchi omillardan deb baholanishi lozim. Asalarichilik klasteri" – bu qo'shma faoliyatni amalga oshirish, tajriba, resurslar va bilim almashish, muayyan hudud yoki jamiyatda soha rivojiga ko'maklashish maqsadida asalarichilar yoki asalarichilik faoliyatini klasterlarga ajratish amaliyotidir[5]. Ushbu amaliyotlar operatsion samaradorlikni oshirish, yangi texnologiyalardan foydalanishni ta'minlash, mahsulot sifatini yaxshilash va bozor raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng yirik viloyatlaridan biridir. Viloyat aholisining soni qariyb 3,0 million kishidan iborat, bu esa mehnat resurslarining ko'pligi va aholi bandligi

bilan bog'liq ko'plab ijtimoiy muammolarning mavjudligiga sabab bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi mintaqada yashovchi aholi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir[3,4]. Surxondaryo viloyatida turli xil flora ega rang-barang landshaftlarning mavjudligi aholiga asalarichilik bilan shug'ullanish imkonini beradi, bu esa oilalarga qo'shimcha, ba'zan esa asosiy daromad keltiradi[6]. Asalarichilar uyshmasi ma'lumotlariga ko'ra Surxondaryo viloyatida, 2,1 mingdan ortiq xonadon o'z xo'jaligida asalarichilik bilan shug'ullanadi, ularning qaramog'ida 50 tagacha oila bor. Ammo xo'jaligida 350 tagacha asalari oilasi bo'lgan yirik asalarichilar ham bor.

Bu raqamlar mavzuning dolzarbligi va sohani rivojlantirish zaruriyatini ko'rsatib bturibdi. Sohaning iqtisodiy samaradorligidan tashqari, asalarichilikda salomatlik uchun qimmatli mahsulotlar – asal, asalari zahri, propolis, gulchang va boshqalarni etishtirish hisobiga aholining katta qismining tirikchiligi(daromad manbai) bo'lishi mumkinligini afsuski e'tiborga olmaymiz. Asalarichilikning iqtisodiy ahamiyatini umuman hisobga olmagan holda ham, qishloq xo'jaligi ekinlaini etishtirish uchun juda muhim ekologik xizmat ko'rsatuvchi changlatuvchidir[7].

1-jadval

Surxondaryo viloyatida mavjud asalari oilalari to'g'risida ma'lumot (dona hisobida)

Tumanlar	Barcha toifadagi xo'jaliklar			shu jumladan:								
				Fermier xo'jaliklari			Dehqon xo'jaliklari			Qishloq xo'jaligi faoliyati amalga oshiruvchi tashk-t		
	2014	2019	2024	2014	2019	2024	2014	2019	2024	2014	2019	2024
Angor	2450	2355	1117	0	25	52	2450	2330	1025	0	0	40
Boysun	6635	7695	9982	888	997	1802	4444	5069	5131	1303	1629	3049
Denov	1360	1590	2554	460	700	1630	900	890	819	0	0	105
Jarqo'rg'on	660	663	621	15	36	160	615	582	461	30	45	-
Qiziriq	407	464	150	100	100	-	177	134	140	130	230	10
Qumqo'rg'on	222	624	521	20	20	88	202	604	433	0	0	-
Muzrabot	339	387	1693	10	10	82	329	377	336	0	0	1275
Oltinsoy	811	792	992	81	70	10	730	722	592	0	0	390
Sariosiyo	2730	3669	6712	452	377	1253	1865	2554	4660	413	738	799
Termiz	666	1281	2745	234	71	345	432	1145	1037	0	65	1363
Uzun	3059	3440	3737	907	1254	1982	1865	1989	1165	287	197	590

Sherobod	315 4	428 3	687 8	160 3	101 1	681	153 1	325 2	449 7	20	20	170 0
Sho'rchi	329 7	356 6	379 5	77	220	430	302 0	302 6	336 5	200	320	-
Termiz sh	-	-	161	-	-	-	-	-	54	-	-	107
Bandixon	-	-	364 3	-	-	109 7	-	-	46	-	-	250 0
JAMI	260 34	309 77	453 01	484 7	489 1	961 2	185 60	227 14	237 61	262 7	337 2	119 28

1.3.1-jadval ma'lumotlariga ko'ra so'nggi 10 yil davomida Surxondaryo viloyati tumanlari kesimida asalari oilalarining soni ortib borgan. Masalan, 2014-yilda jami asalari oilalari soni viloyatimizda 26034 tadan iborat bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019-yilda 30977 tani, 2024-yil holatiga esa, 45301 tani tashkil qilgan. Asalari oilalarini parvarishlashda asosiy o'rinni dehqon xo'jaliklari egallab kelmoqda. 2024-yildagi jami 45301 dona asalari oilalarining 23761 donasi aynan dehqon xo'jaliklari tomonidan parvarishlanmoqda. Keyingi o'rinda 11928 dona bilan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar egallab turibdi. Tumanlar kesimida o'rganadigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Boysun tumani hisobiga to'g'ri kelmoqda. Boysun tumanida jami 9982 dona asalari oilalari parvarishlanmoqda. Keyingi o'rinda 6878 dona asalari oilasi bilan Sherobod hamda 6712 dona asalari oilasi bilan Sariosiyo tumani egallab kelmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PQ-4972-son qarori. Asalarichilik tarmog'ini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi PQ-3327-son qarori. Respublika asalarichilik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2025. – 285 b.
4. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qishloq xo'jaligi va chorvachilik statistik to'plami. – Termiz, 2025. – 156 b.
5. O'zbekiston asalarichilari uyushmasi. O'zbekistonda asalarichilik tarmog'ining rivojlanish holati va istiqbollari. – Toshkent, 2024. – 98 b.
6. Abdurahmonov Q.X. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021. – 640 b.
7. Salimov B.T., Yuldashev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 432 b.
8. Pindyck R.S., Rubinfeld D.L. Microeconomics. – 9th ed. – New York: Pearson Education, 2018. – 768 p.
9. Sammataro D., Avitabile A. The Beekeeper's Handbook. – 5th ed. – Ithaca: Cornell University Press, 2021. – 320 p.
10. Crane E. The World History of Beekeeping and Honey Hunting. – London: Routledge, 2013. – 720 p.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, 26-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.